




**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2021- YIL YANVAR-DEKABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalaridan 22 803,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 13,0 %, Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 12,8 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 52,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,5 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 207,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar - dekabr

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - dekabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21 796,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,6 % ini tashkil etdi.

2020-yil yanvar-dekabr


94,6 %

2021-yil yanvar-dekabr

95,6 %





O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,2 % (17,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,3 % (13,4 %) va quyi texnologiyali – 62,7 % (63,1 %)ni tashkil etdi.

■ 2020- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,7 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 8,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 230,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 36,9 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,5 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




2021- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 255,8 ming litr 100 % spirt (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 84,7 % ga pasaygan), 53,4 ming tonna paxta tolasi (94,4 %) ishlab chiqarili pasayish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	56,6	53,4	94,4
Azot, ming m ³	10,7	2,2	20,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	177,3	173,1	97,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	302,1	255,8	84,7
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	322,6	694,6	215,3
Vino, ming litr	824,9	585,1	70,9
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	711,5	675,5	94,9
Paxta tiviti tona	4967,9	8287,3	166,8

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 4,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 10,3 % ga pasaygan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 8,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 230,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 851,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,2 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 336,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6 415,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 135,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 102,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 620,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati




2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 80,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 96,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 618,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 89,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 80,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 216,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 617,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	468,9	442,3	- 26,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3520000,0	7181018,0	3661018,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 181,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	13 880,1	39 321,4	25 441,3
To'qimachilik chiqindilari, tonna	56,4	27,9	- 28,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	55,9	102,2	46,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 283,3 % ni va Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar- 1,8 (bar.) ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 14 375,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil
yanvar-dekabr

34,6%

2021- yil
yanvar-dekabr

38,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020- yil
yanvar-dekabr

65,4%

2021- yil
yanvar-dekabr

62,0%



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 1,6 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 38,0 % ni, Urgut tumani 10,5 % ni, Samarqand tumani 9,3 % ni, Toyloq tumani 8,2 % ni hamda Jomboy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (112,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Toyloq tumanida (200,2 %) hamda Paxtachi tumanida (197,0 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 38,0 % shuningdek, Urgut 10,5 %, Samarqand 9,3 % ni, Toyloq tumanlarida 8,2 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,4 %, Toyloq 9,0 % ni, hamda Samarqand tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

6 251,4 mlrd. so'm


2019- yil yanvar-dekabr

8 338,5 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-dekabr

8 917,7 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2019- yil

98,9 %

02

2020- yil

115,6 %

03

2021- yil

106,9 %

Kattaqo'rg'on sh.

84,2

171,9

Samarqand sh.

100,3

3737,5

Toyloq

198,2

800,0

Urgut

102,0

1282,3

Nurobod

89,4

110,8

Samarqand

139,0

754,1

Paxtachi

226,9

154,7

Pastdarg'om

85,4

247,4

Payariq

56,3

96,0

Narpay

117,6

230,2

Qo'shrabot

316,2

42,2

Kattaqo'rg'on

108,9

246,1

Ishtixon

90,4

188,7

Jomboy

85,7

533,1

Bulung'ur

99,6

187,5

Oqdaryo

137,7




135,0

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 31,6 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 10,6 % ni, Pastdarg'om tumani esa 7,2 % ni tashkil etdi.



Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 44,6 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 11,3 % ni, Samarqand tumani esa 7,7 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2019- yil

15 783,6 mlrd. so'm

2020- yil

18 383,4 mlrd. so'm

2021- yil

22 803,3 mlrd. so'm



2019- yil

105,6 %

2020- yil

105,4 %

2021- yil

110,8 %

Kattaqo'rg'on sh.

88,5

367,6

Samarqand sh.

109,6

10162,2

Toyloq

134,4

1196,9

Urgut

101,5

1718,4

Nurobod

108,0

260,9

Samarqand

114,1

1746,5

Paxtachi

116,1

476,1

Pastdarg'om

103,0

853,9

Payariq

105,7

487,6

Narpay

100,3

579,2

Qo'shrabot

100,1

86,0

Kattaqo'rg'on

111,8

589,4

Ishtixon

113,0

539,2

Jomboy

106,3

2566,4

Bulung'ur

106,2

562,6

Oqdaryo

108,6

610,4

FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 691,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,5 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Nurobod tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (80,7 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (79,9 %), Urgut tumanida (75,7 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (20,4 %), Samarqand shahrida (26,2 %), Ishtixon (25,8 %), Toyloq (32,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 050 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 693 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Samarqand shahriga, 1 158 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 764 tasi (9,5 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2019- yil
1 971 dona

2020- yil
1 551 dona

2021- yil
1 899 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2019- yil
5 976 dona

2020- yil
6 971 dona

2021- yil
8 050 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan